


O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY  
TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**«ILMIY SEMINAR»**  
fanidan  
**SILLABUS (ishchi dastur)**  
(magistratura talabalari uchun)

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha  
Ta'lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar  
Mutaxassislik: 70230101 – Lingvistika: o'zbek tili

**Buxoro - 2023**

Fan nomi:	Ilmiy seminar
Fan turi:	Majburiy
Fan kodi:	IS 1106
Yil:	2023-2024
Semestr:	3-semestr
Ta'lim shakli:	kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	Seminar – 30 soat, auditoriyadan tashqari – 30 soat
Ma'ruza	–
Amaliy mashg'ulotlar	–
Laboratoriya mashg'ulotlari	–
Seminar	30 soat
Mustaqil ta'lim	30 soat
Kredit miqdori:	2 kredit
Baholash shakli:	Imtihon
Fan tili:	O‘zbek

### I Fan maqsadi (FM)

<b>FM1</b>	“Ilmiy seminar” kursi tilshunoslik fani o‘rganilishining nazariy asoslaridan birini tashkil etadi. Fanning maqsadi lingvistikaning tabiati va predmetini belgilashda, obyektiv borliqdagi hodisalarga tilning munosabatini o‘rganishda muhim bo‘lgan mavjud bilimlardan talabalarni puxta xabardor etishdan iborat.
------------	---

### Fanni o‘zlashtirish uchun zarur boshlang‘ich bilimlar

1	Tilshunoslik nazariyasi
2	Hozirgi o‘zbek adabiy tili
3	Ilmiy tadqiqot metodologiyasi
4	Lingvopragmatika

### II Ta'lim natijalari (TN)

<b>Bilimlar jihatidan</b>	
TN1	– magistrant talabalarning umumlingvistik tayyorgarligini, bilim doirasini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish;
TN2	– yangi nazariy va metodologik materiallar bilan tanishtirish;
TN3	– ijodiy mulohaza yuritishga, izchillikka undash;

TN4	– nazariy bilim saviyasini oshirish, talabalarni ilmiy tadqiqotning, lisoniy tahlilning metodikasi va metodologiyasi bilan qurollantirish.
<b>Ko'nikmalar Jihatidan</b>	
TN5	– tilshunoslik sohasining nazariy mavzularini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun mundarijasini belgilash;
TN6	– nazariy tilshunoslikning muhim xususiyatlari borasida tasavvur hosil qilish;
TN7	– asosiy lingvistik hodisalar, jarayonlar, til birliklari, til birliklarining tizim sifatidagi qurilishi haqida tasavvurlarini kengaytirish <i>ko'nikmalariga ega bo'lish kerak.</i>

<b>III Fan mazmuni</b>	
<b>Mashg'ulotlar shakli : seminar (S)</b>	
S1	<b>“Ilmiy seminar” fanining maqsadi, vazifalari. Ilmiy bilishning asosiy mazmuni.</b> «Ilmiy seminar» fanining maqsadi va vazifalari. Fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalar. Ilmiy bilishning asosiy mazmuni. Dunyoqarash va uning asosiy xususiyatlari.
S2	<b>“Tilshunoslik va falsafa” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Har qanday fanning amaliy bilish ustiga qo'yilgan nazariy bilishga asoslanishi. Bilish falsafa fanining asosi.
S3	<b>“Tilshunoslik va falsafa” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Nazariy falsafa asoschisi Kant uning o'rganish predmeti narsalar (tabiat va jamiyat) emas, balki insonning bilish faoliyatini ilmiy tekshirishdan, inson aqliy faoliyatini aniqlashdan iborat ekanini ta'kidlashi.
S4	<b>“Obyektga substansial yondashuv va tilshunoslik” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Substansiya (lot. substantia – «mohiyat») atamasi falsafada antik davrdan buyon ishlatilishi. Falsafa tarixida mazkur atama xilma-xil tushunchalarni ifodalashi. Antik davr faylasuflari substansiya atamasi ostida olamdagi barcha narsa va hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsani tushunishi.
S5	<b>“Obyektga substansial yondashuv va tilshunoslik” ilmiy matni ustida ishlash.</b> O'rta asr sharq falsafasining Al-Kindiy, Ar-Roziy, Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd singari namoyandalari substantsiyani hamma narsaning asosi, ularning mohiyati deb izohlashlari.
S6	<b>“Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Borliqdagi barcha narsa va hodisalar o'zaro aloqadaligi. Ular bir-biriga ta'sir va aks ta'sir qilib turishi. Tabiat va jamiyatdagi hech bir narsa va hodisa boshqalardan ajralgan holda mavjud bo'lmasligi.
S7	<b>“Dialektik kategoriyalar va tilshunoslik” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Olamni bilish jarayonida uni tashkil etgan o'zaro munosabatdagi alohida narsa va hodisalarni umumiy bog'lanishlardan ajratish. Mazkur jarayonda uning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini ochib berish maqsadida bu narsa va hodisalarning

	boshqa narsa va hodisalar bilan barcha aloqa va bog'lanishlarini, hamma aloqadorliklarini bilib borish.
S 8	<b>“Grammatik ma’no va grammatik shakl” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Grammatik ma’no leksik ma’no kabi predmeti: xos bo’lgan ishlash. xususiyat, munosabatlarning ongda aks etishi. Bu esa leksik ma’noga qo’llanilgan semantik uchburchak grammatik ma’no uchun ham umumiy ekanini ko’rsatishi.
S 9	<b>“Grammatik ma’no va grammatik shakl” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Predmet– unga xos bo’lgan belgi-xususiyatning ongda aks etishi – ongda aks etgan belgi, xususiyatning ma’lum moddiy vositalar – ongda shakllar yordamida ifodalanishi (Signifikat – Akustik ifoda – grammatik Moddiy vosita bilan ongda aks etgan predmet xususiyati munosabati). Moddiy vosita bilan ongda aks etgan predmet xususiyati munosabati grammatik ma’no sanalishi.
S 10	<b>“Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Tilshunoslik mantiq fani bilan ham uzviy aloqadorligi. Har ikkala fanning ham tafakkur bilan bog’lanishi. Tilshunoslikning o’rganish obyekti bo’lgan til tafakkur bilan o’zaro munosabatdaligi. Til kishilarning olam haqidagi bilimlarini, fikrlarini boshqalarga yetkazuvchi va shakllantiruvchi vosita ekanligi.
S 11	<b>“Tilshunoslikning mantiq bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Til va tafakkur o’zaro dialektik munosabatda ekan, ularni o’rganuvchi tilshunoslik bilan mantiq o’rtasida ham ana shunday dialektik aloqaning bo’lishi tabiiyligi.
S 12	<b>“Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Lisoniy faoliyat, bir tomondan, tilshunoslikning o’rganish obyekti bo’lsa, ikkinchi tomondan, psixologiyaning ham tekshirish predmeti sanalishi.
S 13	<b>“Tilshunoslikning psixologiya bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Tilshunoslik bilan psixologiyaning ham kesishish nuqtasi mavjudligi. Ikki fan oralig’idagi kesishish nuqtasi psixolingvistikaning o’rganish obyekti sanalishi.
S 14	<b>“Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Tilshunoslik tibbiyotning nevrologiya bo’limi bilan ham uzviy aloqada ekanligi. So’nggi davrlarda psixologiya, nevrologiya va tilshunoslik fanlarining oralig’ida neyrolingvistika nomi bilan yuritiluvchi yangi fan tarmog’i vujudga kelishi.
S 15	<b>“Tilshunoslikning nevrologiya bilan munosabati” ilmiy matni ustida ishlash.</b> Neyrolingvistikada nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekani, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga ta’siri masalalari o’rganilishi. Neyrolingvistikaning o’rganish obyekti afaziya ekanligi.

IV Mustaqil ta’lim(MT)		
1	“Sossyur lingvistik ta’limoti va uning zamonaviy tilshunoslik taraqqiyotidagi o’rni” matni asosida esse yozish.	2 soat
2	“Roman Yakobson ta’limoti haqida” matni asosida esse yozish.	2 soat
3	“Yakob Grimm ta’limoti” matni asosida esse yozish.	2 soat

4	“Gyustav Giyom ta'limoti haqida” matni asosida esse yozish.	2 soat
5	“Shakl va ma'no munosabati” matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.	2 soat
6	“Til va madaniyat” matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.	2 soat
7	“Til strukturasi nazariyasining taraqqiyoti” matni asosida taqdimot slaydlari tayyorlash.	2 soat
8	Ilmiy seminar fani bo'yicha adabivotlarni o'rganish va tahlil qilish.	2 soat
9	Ilmiy seminardan darslik va o'quv qo'llanmalarining bobliari hamda mavzularini o'rganish	2 soat
10	Ilmiy seminardan tarqatma materiallar tayyorlash. (bo'limlar bo'yicha)	2 soat
11	Ilmiy bilishning asosiy mazmuni bo'yicha taqdimot materiallarini tayyorlash	2 soat
12	“Tilshunoslik va falsafa” ilmiy matni asosida nostandart materiallar tayyorlash	2 soat
13	“Falsafiy UMIS va AHVOning tilda voqelanishi”dan taqdimot materiallarini tayyorlash	2 soat
14	Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini mantiq bilan bog'lab ilmiy maqola tayyorlash.	2 soat
15	Magistrlik dissertatsiyasi mavzusini psixologiya bilan bog'lab ilmiy maqola tayyorlash.	2 soat

#### Asosiy adabiyotlar

1. Раҳматуллаев Ш. Илмий тадқиқот асослари. –Т. 2002.

[https://www.ziyouz.com/books/kollej\\_va\\_otm\\_darsliklari/ona-tili\\_va\\_adabiyot/Ilmiy%20ta%20ta%20adabiyot%20asoslari%20\(Sh.Rahmatullayev\).pdf](https://www.ziyouz.com/books/kollej_va_otm_darsliklari/ona-tili_va_adabiyot/Ilmiy%20ta%20ta%20adabiyot%20asoslari%20(Sh.Rahmatullayev).pdf)



2. Неъматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. –Т.: Ўқитувчи, 1993. – 30 б.

[https://n.ziyouz.com/books/uzbek\\_adabiy\\_tili/Til%20va%20nutq%20\(H.Ne'matov,%20O.Bozorov\).pdf](https://n.ziyouz.com/books/uzbek_adabiy_tili/Til%20va%20nutq%20(H.Ne'matov,%20O.Bozorov).pdf)



Гумбольдт В. фон. Язык и философия культуры. -М.:Прогресс,1985. –451 с.  
[https://royallib.com/read/gumboldt\\_vilgelm/yazik\\_i\\_filosofiya\\_kulturi.html#0](https://royallib.com/read/gumboldt_vilgelm/yazik_i_filosofiya_kulturi.html#0)



### Qo`shimcha adabiyotlar

4. Биллиш фалсафаси (гносеология). –Т.: Университет, 2005. - 347 б.



5. Гумбольдт В. фон. Избранные труды по языкознанию. -М.: Прогресс, 1984. – 397 с. <https://www.rulit.me/books/izbrannyye-trudy-po-yazykoznaniiyu-read-213842-1.html>



6. Миртожиев М., Махмудов Н. Тил ва маданият. –Т.: Ўзбекистон, 1992. – 110 б. <https://n.ziyouz.com/books/uzbek-adabiy-tili/Miraziz%20Mirtojiyev,%20Nizomidin%20mahmudov.%20Til%20va%20madaniyat.pdf>



7. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Raupova L., Qurbonova M., Abuzalova M., Yuldasheva D. Hozirgi o'zbek tili. –B., 2021.–555 b. <http://yuldasheva.buxdu.uz/index.php/kutubxona/2021-02-23-13-28-46>



### Axborot manbalari

<https://www.researchgate.net/publication/337655858> TIL -

<http://www.utpa.edu/faculty/mglazer/Theory/structuralism.htm>

[http://www.eng.fju.edu.tw/Literary\\_Criticism/structuralism](http://www.eng.fju.edu.tw/Literary_Criticism/structuralism)

### TALABANING O'ZLASHTIRISHINI BAHOLASH MEZONLARI

#### 5 baho olish uchun talabalarning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- \*fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritilgan bo'lsa;
- \*fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- \*fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy va amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- \*fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon qila olsa;
- \*konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- \*mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- \*fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- \*fanga tegishli mavzular bo'yicha bitta ilmiy maqola chop etgan bo'lsa;
- \*tarixiy jarayonlarni sharxlay olsa.

#### 4 baho olish uchun talabalarning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- \*fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fandagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- \*fanning mazmunini, amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;
- \*fan bo'yicha berilgan topshiriqlarni fan dasturidan kelib chiqqan holda bajarsa;
- \*fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;
- \*fan bo'yicha konspektni puxta shakllantirgan bo'lsa;
- \*fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa;
- \*fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni o'zlashtirgan bo'lsa.

#### 3 baho olish uchun talabalarning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- \*fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;
- \*fandagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmas;
- \*bayon qilish ravon bo'lmas;

\*fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;  
 \*fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.  
 2 baho olish uchun talabalarning bilim darajasi quyidagicha bo'lishi mumkin:

\*fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;  
 \*fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;  
 \*fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;  
 \*fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;  
 \*fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;  
 \*fan mohiyatini anglamasa.

### Fan o'qituvchisi to'g'risida ma'lumot

<b>Muallif</b>	<b>Yuldasheva Dilorom Nigmatovna</b> – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, p.f.nomzodi
<b>E-mail</b>	<a href="mailto:yuldasheva21dilorom@gmail.com">yuldasheva21dilorom@gmail.com</a>
<b>Tashkilot</b>	<b>Buxoro davlat universiteti</b>
<b>Taqrizchilar</b>	<b>Abuzalova Mehriniso Kadirovna</b> – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, f.f.doktori
	<b>Nazarova Saida Axmedjanovna</b> – BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasida professori, f.f.nomzodi

Mazkur sillabus universitet o'quv-usuliy Kengashining 2023-yil 29- avgustdagi 1- sonli yig'ilishi bayoni bilan tasdiqlangan.

Mazkur sillabus o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasining 2023-yil 26-avgustdagi 1-sonli yig'ilishi bayoni bilan ma'qullangan.

O'quv-usuliy departament boshlig'i  **M.A.Tursunov**

Fakultet dekani  **Q.R.To'xsanov**

Kafedra mudiri  **D.Z.Rajabov**

Tuzuvchi  **D. N.Yuldasheva**